Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tanlovga tayyor bo‘lish yosh kadrlarning qobiliyat darajasi bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim falsafasi bu ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidir. Xulosa shuki, ta’lim falsafasi insonni rivojlantirish, uni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirish, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur bo‘lgan ilmiy va nazariy asoslarni yaratadi. U ta’limning mohiyati, maqsadi, shakli va mazmunini chuqur tahlil etishga yordam beradi. Har qanday ta’lim tizimi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uning falsafiy asoslari mustahkam bo‘lishi shart. Zamonaviy dunyoda ta’lim falsafasi global muammolarga javob izlaydi, axborot asrida insonning kamolotini ta’minlashni maqsad qiladi. Shu bois ta’lim falsafasini puxta o‘rganish har bir pedagog va mutaxassis uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Mukhtarov U. Family education instead of personnel immunity of the youth and public health. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2019, T. 9, № 3, c. 89–92.

[2]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. М., Едиториал УРСС, 2004, с. 416.

[3]. Mukhtarov U. The historical forms and conceptual peculiarities of philosophical education. International Journal of Scientific & Technology Research. 2020, T. 9, №. 3, c. 4002–4006.

[4]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. М., Едиториал УРСС, 2004, с. 416.

[5]. Қуръон Карим. Алақ сураси, 96:3–5.

[6]. Ибн Можа, Сунан, илм бобида.

[7]. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. Тошкент, 2010, 574-бет.

Toshpulatov Odil Nodirovich (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo‘lim boshlig‘i)

YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH VA AMORALIZMGA QARSHI TURISHDAGI FALSAFIY G‘OYALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ming yillar davomida takomillashib kelayotgan axloqiy munosabatlar xalq amaliyotining natijasidir. Axloq yoshlarning e’tiqod va dunyoqarashi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan tarbiya insoniyat hayotining davomiyigini ta’minlaydigan beqiyos kuchdir. Axloq tamaddunlarning muhim tayanchi bo‘lib hisoblangan. Mazkur maqolada ajdodlarimizning yoshlar axloqiy tarbiyasiga doir muhim nazariy bilimlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *axloq, amoralizm, “Avesto”, zardushtiylik, ezgulik, yovuzlik, adolat, nafs, huquq, jinoyat.*

Тошпулатов Одил Нодирович Начальник отдела Центра исследований развития высшего образования

АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В ПОВЫШЕНИИ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ И БОРЬБЕ С АМОРАЛИЗМОМ

Аннотация. *Нравственные отношения, совершенствовавшиеся на протяжении тысячелетий, являются результатом народной практики. Нравственность влияет на формирование убеждений и мировоззрения молодых людей. По этой причине образование является ни с чем не сравнимой силой, обеспечивающей непрерывность человеческой жизни. Нравственность считается важным столпом цивилизации. В статье анализируются важные теоретические знания наших предков относительно нравственного воспитания молодежи.*

Ключевые слова: *мораль, аморализм, “Авеста”, зороастризм, добро, зло, справедливость, похоть, закон, преступление.*

Toshpulatov Odil Nodirovich (Head of Department, Center for Research on the Development of Higher Education)

ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL IDEAS IN IMPROVING THE MORAL CULTURE OF YOUTH AND COMBATING AMORALISM

Annotation. *Moral attitudes, perfected over thousands of years, are the result of folk practice. Morality influences the formation of beliefs and worldviews of young people. For this reason, education is an incomparable force that ensures the continuity of human life. Morality is considered an important pillar of civilization. The article analyzes the important theoretical knowledge of our ancestors regarding the moral education of youth.*

Keywords: *morality, immorality, “Avesta”, Zoroastrianism, good, evil, justice, lust, law, crime.*

Kirish: Ming yillar davomida takomillashib kelayotgan axloqiy munosabatlar xalq amaliyotining natijasidir. Axloq yoshlarning e'tiqod va dunyoqarashi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan tarbiya insoniyat hayotining davomiyigini ta'minlaydigan beqiyos kuchdir. Axloq tamaddunlarning muhim tayanchi bo'lib hisoblangan.

Insoniyat diniy-falsafiy tafakkuri dastlabki axloqiy qoidalarni mustahkamlagan. Xalqimiz axloqiy madaniyatiga singib ketgan Zardushtiylik dini ta'limoti bu boradagi muhim manbadir. Zardushtiylik ta'limotining asosi bo'lmish ezgulik insonlarni hamisha yaxshilikka chorlab kelgan. Amoralizmga qarshi insonning faoliyati ezgu fikrdan boshlanadi. Yaxshi o'y-fikrlar xushmumalalaikka, shirinso'zlikka chorlaydi. Ezgu so'zlar insonni chiroyli amallar tomon yetaklaydi. "Avesto"da ilgari surilgan ushbu yuksak axloqiy g'oya mohiyatida quyidagi dialektik tamoyillar aks etgan:

birinchidan, dunyo asosini Axura Mazda yaratgan va uning bunyodkorlik tamoyiliga tobe tanali (moddiy) va ruhiy (ideal) mavjudot tashkil etadi. Bu tamoyil pirovardida Axura Mazda g'oyalarining g'alabasini taqozo etadi;

ikkinchidan, bu g'alaba bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalarini ifodalovchi ikki qarama-qarshi ruhlarning kurashi (dialektika) orqali erishiladi;

uchinchidan, bu kurash muayyan vaqt va makonda (vaqt va makon haqidagi tasavvur) sodir bo'lib, axloqiy tamoyil – "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" (etika)ning g'alabasi bilan yakunlanadi" [1;218-b.].

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. "Avesto" ta'limotiga binoan, fazilatlar va illatlar insonning ichki – botiniy borlig'ida yashaydi. Inson o'zidagi mavjud fazilatlari asosida yashab, Axura Mazda tomonida bo'lishi yoki illatlarini (amoralistik xohish-istaklarini) namoyon qilib, Axrimanni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu inson hayot faoliyatiga bog'liq. Kishi qaysi tomonga ergashishini erkin hal qiladi. Zardushtiylik ta'limotiga binoan biosfera o'z yakuniga yetadi. Shunda barcha insonlar hayoti davomidagi fikrlari, qilmishlariga yarashasini oladi. Dunyodagi yovuzlik butunlay yo'qlikka aylanadi. Kimki yaxshilik tomonda bo'lsa, Axura Mazda mukofotiga erishadi. Yomonlar esa Axriman singari jazosini oladi. "Shuning uchun Axura Mazda Buyuk qiyomat kuniga ezguliklar bilan kelishni tavsiya etadi, buning uchun ajr, mukofot tayinligini bildiradi" [2]. Axura Mazda insonni axloqiy kamolotga yetaklasa, Axriman ma'naviy tubanlikka chorlaydi. Bu tortishuv inson umrining oxrigacha davom etib, o'lim bilan yakun topadi. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, germenevtik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Zardushtiylik dini mohiyatida barcha insonlarning Axura Mazda oldida teng ekanligi g'oyasi ilgari suriladi. Zardusht jamiyatdagi tabaqalanishga, boylik to'plashga qarshi turadi. E'tiqod qiluvchi barchaga birday munosib bo'lgan farovon hayotda yashashni oliy maqsad qilib qo'yadi. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan o'z izdoshlariga dunyo halovatlaridan, lazzat va farovonlikdan voz kechishni, riyozat chekib yashashni tavsiya etmaydi, aksincha, shod-u xurramlik bilan, o'ynab-kulib, ko'ngil ochib yashash lozimligini uqtiradi. "Avesto"da Zardusht Axura Mazda qizi Oshaga hamd-u sano o'qiydi va uni ezgulik, yaxshilik, baxt, shodlik, boylik, halovat, farovonlik, tinchlik, osoyishtalik ilohasi sifatida olqishlaydi. Ammo amoralistik ishlar bilan badnom bo'lib yurgan buzg'unchi Drugvand (aldoqchi, kazzob) qishloq va o'lka eli hayotini yaxshilik tomonga o'zgartirmoqchi bo'lgan o'sha tarafdorlarini yo'ldan ozdirmoqchi bo'ladi. Drugvandga qarshi butun dil-u joni va kuchi bilan olishgan kishigina jahon ahlini ezgulik yo'liga boshlay olur" [3].

Avestoda talqin etilishicha, zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan har bir inson amoralizmga berilib zulmat ichida sargardon bo'lmasligi uchun rostlik va haqiqat chirog'ini qalbida yoqmog'i kerak, o'shandagina kishi komil inson bo'lib yetishishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Zardusht o'z izdoshlarini rostgo'ylik va haqiqatparastlikka da'vat etadi.

Zardushtiylik ta'limoti o'z davri va necha asrlar davomida qonunvazifasini o'tagan. Unda jamiyat a'zolarining individual munosabatlariga alohida urg'u berilgan. Gigiyenik jihatdan muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Atrofga zarar yetkazmaslik, daraxtlar ekish, suvning ahamiyatiga doir muhim topshiriqlarni guvohi bo'lamiz. Suvning umumiyligi va uning ifloslanishi oerali biosferaga zarar yetishi ta'kidlanadi. Insonlarni mehnatga chorlaydi. Kimgadir tegishli unumdor yerlar bo'sh qolsa, unga qaralmasa, devlar u joyda qo'nim topadi. Mehnat tarbiyasi orqali kishi yomon illatlardan uzoqlashadi [4]. Tartiblilik "Avesto"ning asosiy g'oyasi hisoblanadi va har bir ishda me'yor bo'lishi talab qilinadi.

Umuman, insonlar axloqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi zardushtiylik ta'limoti va muqaddas "Avesto" kitobi xalqimizda jasorat-u mardonalik, ertangi kun umidi bilan yashash, ezgulikka moyillik va unga hamisha shay turish tuyg'ularini tarbiyalashga, amoralistik harakatlardan tiyilish, yovuzlikka nisbatan nafrat hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

Hindiston falsafiy maktablaridan Charvakalarning odob-axloqqa oid qarashlari e'tiborga loyiq. Ular go'zal hayotni, axloqiy kamolotni targ'ib qiladilar. Insonning kamroq azob-uqubatlar chekib, ko'proq rohat-farog'atda yashashni orzu qilishi, tabiiydir. Buning uchun esa u mehnat qilishi, ilm-fan yutuqlari bilan oshno bo'lishi lozim. Chorvaklar ta'limotida mehnat ulug'langan. Halol mehnat insonda axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Demak, kasb etikasi chorvaklar asosiy tarbiyaviy sifatidir. Odob-axloq – inson ko'rki. U tufayli odamlar bir-biriga do'st, hamkor bo'ladilar. Baxt-saodatga erishish inson oliy maqsadidir. Unga oqilona tadbir va amal orqali yetishiladi.

Shu bilan birga, qadimgi Hindistonda jismoniy va ruhiy tarbiyaga e'tibor qaratgan "Yoga sutra" alohida ahamiyatga ega. Xotirjamlik va bosiqlik barcha qiyinchiliklarni yengib o'tish omilidir. Bunda insonni har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish o'rgatilgan. Insonlarni e'zozlash, har qanday tirik tabiat obyektlariga zarar yetkazmaslik lozim. Yogada nafaqat ruhiy sog'lomlik, qolaversa, gigiyenik ozodalikka alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu ta'limotga ko'ra, har qanday amoraliktik harakatlar xohish-istaklar quliga aylanish oqibatida kelib chiqadi. Inson o'z nafsidan voz kechib, qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishi lozim. Bu bilan har qanday amoralistik harakatlardan tiyilib, jamiyatda begonalashishning oldini oladi.

E'tibor qiladigan bo'lsak, amoralizm va immoralizm aynan insoniyatning moddiy boylikka ruju qo'yishi va ochko'zligi asnosida kelib chiqadi. Insoniyatning tabaqalanishi bilan amoralistik harakatlar kuchaya boshlagan. Bugungi kunda ham ba'zilar moddiy boyligi ko'p insonlarni "baxtli" deb hisoblashadi. Moddiy boyligi ko'plar (uni qanday yo'l bilan topganidan qat'iy nazar) ko'klarga ko'tarilib maqtaladi va yoshlarga namuna qilib ko'rsatiladi. Buning asnosida, voyaga yetayotgan yoshlar qanday qilib bo'lmasin, boyish ilinjida amoralistik harakatlardan to'xtamaydilar. Vaholanki, muqaddas Islom dinimizda ham ehtiyojidan ortib boylik to'plashdan qaytarilgan. Shunday ekan, yoshlarning hashamatli hayotga bo'lgan xohish-istak asosida tarbiyalamaslik amoralistik va immoralistik harakatlardan tiyilishga olib keladi.

Qadimgi xitoyliklarning boshqa xalqlardan ajralib turadigan muhim tomoni – ular tabiatdagi barcha jismlarni jonlantirishlarida va ajdodlar ruhining bugungi kun hamda kelajakka ta'sir o'tkaza olish darajasida ulug'lashlarida ko'rinadi. Qadimgi xitoyliklar diniy-mifologik tafakkuriga ko'ra, o'tgan ajdodlarining ruhi insonlar orasida kezib yuradi. Ularga hurmat bajo keltirish, yordam so'rash lozim. Chunki ruhlar kelajakning sirli pardasini ochib beradi, odamlar xulq-atvori va faoliyatiga qattiq ta'sir etadi.

Xitoy xalqi madaniyatiga xos axloqiy fazilatlar jamiyat a'zolarining o'zaro hamohang munosabatlari asosida shakllanadi. Qadimgi Xitoy xalqi turmushidagi axloqiy munosabatlarni uyg'unlashtirgan Konfutsiy ta'limotida o'zaro hurmat yetakchi o'rin egallagan. Mazkur ta'limot tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Butun Xitoy xalqi sivilizatsiyasi mazkur ta'limot asosida qurilgan. Konfutsiylik g'oyalari Xitoy orqali sharq xalqlari ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatganligini aytishimiz mumkin. "Masalan, syao yoki ota-onani hurmat qilish, kattalarga izzat-ikrom ko'rsatish konsepsiyasi yosh jihatidan ham, ijtimoiy iyerarxiya bo'yicha ham kattalarga nisbatan o'z xulq-atvorini barcha fazilatlar mohiyatini anglab yetish asosida yo'lga qo'yishni taklif qiladi" [5]. Xitoy falsafiy ma'naviyati xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, mohiyatan ichki barqarorlikni, bir-biriga bog'lanib ketishni tashkil etadi. Oqibatda, Xitoylarga xos fikr yuritish usulining ustunligi to'g'risida fikr shakllanib, o'zga falsafiy qarashlarga nisbatan betoqatlik hissiyoti yuzaga keladi. Eramizdan oldingi asrlarda bitilgan "Tartib kitobi"da ajdodlar o'gitlari kelajak avlod uchun etalon sifatida ko'rsatiladi.

Konfutsiy tomonidan bayon etilgan kitoblarning asosiy mazmuni beshta oddiy, lekin buyuk insoniy fazilatdan iboratdir. Ushbu besh fazilat kishini yuksaklikka chorlaydi. Bulardan birinchisi–donolik. Bunga o'qish-o'rganish orqali erishiladi. Ikkinchisi–insoniylik. Yoshlarni tarbiyalash asosida shakllantiriladi. Keyingisi–keksalarni hurmat qilish. Ulardagi hayotiy tajribalar muhim hisoblangan. Jasorat va sadoqat. Namuna bo'lish orqali rivojlantiriladi. Bu axloqiy qoidalar bo'lib, amaliy dastur vazifasini bajargan. Bu vijdoniylik va o'zini hamda o'zgalarni hurmat qilishni bildiradi. Donolik – kishi bajarayotgan har bir faoliyatini mavjud me'yorlar tarozusida o'lchab bajarishida bilinadi. Insoniylik – xatti-harakatlarimiz natijasi bashariyat avlodi manfaatlariga qaratilmog'i lozim. Sadoqat – ishonch bildirgan yaqinlariga xiyonat qilmaslik. Keksalarni hurmat qilish – ularning hayot tajribalariga ishonch bildirish. Jasorat – jamoa manfaati uchun o'z huzur-halovatidan kechish. Lekin bunday talablarni amalga oshirishga yuksak ma'naviyatli, xos kishilargina qodirdirlar. Konfutsiyning fikricha, qayd etilgan qoidalarni o'rinsiz kengaytirish maqsadga muvofiq emas.

Xulosa. Qadimgi Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkuriga ko'ra, amoralizm va shaxsiy manfaatdorlik inson tabiatiga xosdir. Faqatgina ba'zilar olgan tarbiyasiga ergashib, amoralizm xususiyatlarini yashirib turadi. Ba'zilar uni ochiq namoyon qiladi. Amoralistlar hamisha umum tomonidan turli ko'rinishda taqibga

uchragan. Eng keng tarqalgan usul ijtimoiy munosabatlardan chetlashtirsh koʻrinishida uchraydi. Shu sababdan Sharqda doimo amoralistik muammolarning oldini olish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Gʻarbda ham xuddi shunday insonlar axloqiy madaniyatini yuksaltirish, gʻayriaxloqiy (amoralistik) harakatlardan tiyilish, bunda tarbiya mezonlari barcha faylasuf-olimlar ilmiy merosida oʻz aksini topgan. Gʻarbning buyuk faylasufi Aflotun insonlardagi mavjud axloqiy fazilatlarni tugʻma deb hisoblaydi va tarbiya orqali ularni rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Agar tarbiya notoʻgʻri boʻlsa, yoshlardagi axloqiy fazilatlarning oʻrniga amoralistik illatlar paydo boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Г.Т.Маҳмудова, М.М.Исҳоқов ва бошқалар. Зардуштийлик хрестоматияси. Тошкент, "Mumtoz soʻz", 2017. 218-бет.

(2). Маҳмудова Г.Т. "Авеста" ва зардуштийлик онтологиясининг диний-фалсафий моҳияти. «Новости образования: исследование в XXI веке». Международный научный журнал, № 5 (100), часть 1, декабрь, 2022, с. 131.

(3). "Авесто" (Асқар Маҳкам таржимаси). Тошкент, "Гулистон", 1991, 206-бет.

(4). М.Умарзода. "Ависто" сирлари. "Жаҳон адабиети", 1997, 197-бет.

(5). Шермухаммедова Н. Фалсафа. Тошкент, 2009, 47 бет.

(6). Комилов Р.Р. (2020). Ислом динининг ўзбек халқи никоҳ муносабатлари ахлоқий-эстетик моҳиятида намоён бўлиши. Of socio-cultural environment, 41.

(7). Комилов Р.Р. (2020). Ўзбек халқи никоҳ муносабатлари генезисининг ахлоқий-эстетик ривожланиш хусусиятлари. Интернаука, 15(144, часть 2), 95.

(8). Komilov R.R. (2018). The aesthetec and moral sides of the family and wedding ceremonies. In international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy (pp. 10–14).

(9). Komilov R.R. (2017). The aesthetic significance of the uzbek nation's wedding ceremonies evolution. In practice of communicative behavior in social and humanitarian researches (pp. 47–50).

(10). Komilov, R.R. (2017). Aesthetic component of wedding ceremonies of the uzbek people. Theoretical & Applied Science, (4), p. 87–89.

Ergashev Humoyun Samad oʻgʻli (OʻzMU tayanch doktoranti; E-mail:ergashevhumoyun@gmail.com)

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHIDAGI OʻZGARISHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviy dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy pozitsiyalariga koʻrsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Globallashuv nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy-ma'naviy maydonda ham chuqur oʻzgarishlarga sabab boʻlayotgani, ayniqsa, yosh avlod ongida gʻarbona stereotiplar, individualizm va iste'molchilik ruhiyati kuchayib borayotgani koʻrsatib oʻtiladi. Tadqiqotda milliy ma'naviyatni saqlab qolish, madaniy identitetni mustahkamlash, yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborot tanlash madaniyatiga oʻrgatish kabi masalalar yoritiladi.*

Kalit soʻzlar*: globallashuv, yoshlar, ma'naviyat, dunyoqarash, madaniy identitet, axborot maydoni, ma'naviy immunitet.*

ИЗМЕНЕНИЯ В ДУХОВНОМ МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на духовный мир молодежи, их ценностные ориентиры и нравственные позиции. Показано, что глобализация вызывает глубокие изменения не только в экономической и политической, но и в культурно-духовной сферах, особенно в сознании молодежи, где усиливаются западные стереотипы, индивидуализм и потребительские настроения. В исследовании рассматриваются вопросы сохранения национальной духовности, укрепления культурной идентичности, формирования у молодежи критического мышления и культуры выбора информации.*

Ключевые слова*: глобализация, молодежь, духовность, мировоззрение, культурная идентичность, информационное пространство, духовный иммунитет.*

CHANGES IN THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Annotation. *This article analyzes the impact of globalization on the spiritual worldview, values, and moral positions of youth. It highlights that globalization leads to profound changes not only in the economic and political spheres but also in the cultural and spiritual domains, particularly by strengthening Western stereotypes, individualism, and consumerist attitudes in the minds of young people. The study addresses*